



**FARG'ONA SHAHRINING ATMOSFERA HAVOSIGA KORXONALARNI SALBIY
TA'SIRLARI**

Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna

FarDU, Kimyo kafedrasi o'qituvchisi

2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida "2030-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (30.10.2019 yil PF-5863-son) ishlab chiqildi. Ushbu kontsepsiya ekologiya sohasida ish olib borayotgan muhandislar, olimlar, pedagoglar, izlanuvchi magistrantlar va psixologlar oldiga bir qator vazifalarini yuklaydi.

Konsepsianing amalda to'g'ri bajarilishi natijasida biz quyidagilarga erishishimiz mumkin: Konsepsianing amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda

Orol dengizining qurigan tubini O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish;

qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10 foizga kamaytirish;

qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan)

15 foizga kamaytirish;

oqava suvlarini tozalash samaradorligini 80 foizgacha oshirish;

atmosfera havosiga ifoslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish;

transport vositalarining 80 foizini metan yoki propan yoqilg'isi va elektr energiyasida ishslashga o'tkazish;

o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish;

IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12 foizgacha kengaytirish;

Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish;

aholini qattiq maishiy chiqindilarini toplash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olish;

hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarini qayta ishslash hajmini

65 foizgacha ko'paytirish;

alohida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulyatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ni qayta ishslash hajmini 30 foizgacha ko'paytirish kutilmoqda.

Sanoatning rivojlanishi, aholi va barkamol avlod turmush sharoitining o'sishi bevosita muhitning ekologik holati bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunga kelib, sanoati yuksak darajada rivoj topgan mamlakatlar o'z navbatida ko'plab ekologik muammolarga duch kelmoqda. Sanoatning o'sishi uchun kerak bo'ladigan zavod yoki ishlab chiqarish birlashmalari va avtotransport vositalari shahar atrof-muhitini ifoslanishiga sabab bo'lib, ekologiyani ma'lum miqdorda izdan chiqishiga olib kelmoqda. Bunday holatni o'z



shahrimiz yoki yurtimiz misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagilarga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududi havo havzasining zaharlanishi jihatidan 3ta asosiy mintaqaga bevosta bo'linadi: 1- Mintaqqa Amudaryoning quyi qismi, Qizilqum, Zarafshonning quyi qismi va cho'llar. 2- Mintaqqa o'rta Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va o'rta Sirdaryoning bir qismi. 3- Mintaqqa Farg'ona vodiysi hisoblanadi. Birinchi mintaqqa, ya'ni Amudaryoning quyi qismi, Qizilqum, Zarafshonning quyi qismi va cho'llar hududlarida respublikamizning boshqa mintaqalariga nisbatan atmosfera havosining zaharlanishi o'tracha 2,5-2,8 barobar ko'p ekanligini ko'rish mumkin. 2- mintaqqa hududlariga Sirdaryo "Gidroelektr stansiyalari"ning joylashishi, Samarqand va Qashqadaryoda yengil va oziq-ovqat sanoati, tabiiy resurslarni qazib olinishi, gaz, metallarni qayta ishslash, kimyo va qurilish sanoati, Surhandaryo yaqinidagi qo'shni Tojikiston Respublikasida joylashgan alyuminiy zavodlarining salbiy ta'siri bu mintaqalarning "Atmosfera havosini zaharovchi mintaqalar" deb atalishiga sabab bo'lmoqda, ayniqsa, alyuminiy zavodidan chiqayotgan zaharli moddalar Surhondaryo o'simliklari, xususan, anor va boshqa o'simliklariga, hayvonot olamiga hamda shu xudduda yashovchi insonlar sog'lig'iga o'zining salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda. Uchinchi mintaqqa bo'l mish, Farg'ona vodiysi shu jumladan, Farg'ona shaxri atmosfera havosi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, ushbu mintaqqa o'zining sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar, turli zaharli gazlar evaziga atmosfera havosi eng zaharli mintaqalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, Farg'ona shahri Respublikamizning sanoatlashgan markazlaridan biri bo'lib, bu xuddudda azaldan boshqa xududlarga nisbatan aholisi anchagina zinch joylashgan. Bu yerlarda turli sanoat va ishlab chiqarish markazlari tashkil topgan. Birgina Farg'ona shahrining Kirguli mavzesini olib qaraydigan bo'lsak, bir necha sanoat karxonalari, kimyo zavodlari hamda turli ishlab chiqarish birlashmalari mavjud bo'lib, atmosfera havosiga chiqayotgan chiqindi gazlar va changlar me'yori ruxsat etilgan meyordan bir necha barobar ortiq ekanlini ko'rish va xis etish mumkin. O'zbekiston davlat hisoblash markazining ma'lumotlariga ko'ra, bir yilda Farg'ona xududiga chiqarilayotgan chiqindi gazlar va zaharli aralashmalar miqdori (azot, metan, oltingugurt, uglerod oksidi va boshqa moddalar) 3,21 mln. tonnani tashkil etib, bu ko'rsatkich miqdori kundan kunga ortib bormoqda. Atmosferaga o'zining eng ko'p chiqindi gazlarini chiqarayotgan soha sifatida kimyo sanoatini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Kimyo sanoati- zavodlari yiliga atmosferaga 230 ming tonnadan ko'proq chiqindi gaz va boshqa zaraharli moddalar chiqaradi. Shundan, uglevodorod qiymati 120 ming tonnani, uglerod oksidi va uni changi 40-50 ming tonnani, oltingugurtli va azot oksidli gazlar 20 mindan 35 minggacha bo'lgan tonnani tashkil etadi. Bu chiqindilar yoki gazlar atmosfera havosi orqali shu xuddudda yashayotgangan insonlarning nafas olish a'zolarini ishdan chiqarmoqda, jumladan, o'pka raki, yurak-qon tomir va allergik kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, hayvonot va o'simliklar dunyosiga ham ma'lum darajada o'zining salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida zaharli gazlarni hayotimizga salbiy ta'sirini asosiy vositasi ekanligini ko'rsatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.Mamajonov, M.Nishonov, S.M.O'rmonov. "Atmosfera havosini muhofaza qilish" Farg'ona "Sclassic" nashriyoti -2021 yil, 120 bet.
2. Бобылов С.Н., Михаленко М.В. «Загрязнение окружающей среды и экономический ущерб для здоровья» // Безопасность жизнедеятельности. -2007 . № 4 C.18-23
3. 1 Bazarov Abdurasul Abdusamatovich, 2 Solijon Musayevich O'rmonov , 3 Sotvoldiyev Ulug'bek Odiljon o'g'li, 3 Raxmatova Zahro Murtaza qizi FARG'ONA SHAHRINING ATMOSFERA HAVOSIGA FARG'ONA XUDUDIDA JOYLASHGAN TURLI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNI SALBIY TA'SIRLARI .Ekologiya xabarnomasi, Maxsus son.